

O'ZBEKİSTONDAGI TA'LIM SİFATINI OSHIRISH İMKONİYATLARI

*Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani
95-maktab direktori Xudoynazarova Zamira Bo'riyevna*

Annotatsiya: *Ta'lim sifatini yaxshilash davlat siyosati darajasidagi eng ilg'or yo'nalishlardan biri. Bu borada, ya'ni ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amaliy shar-sharoitlar olib borilmoqda. Ushbu imkoniyatlar zaminida yoshlarning porloq kelajagi va ularning orzu-umiddlari yotadi.*

Abstract: *Improving the quality of education is one of the most advanced directions at the level of state policy. In this regard, practical measures are being taken to improve the quality of education. On the ground of these opportunities lies the bright future of young people and their dreams.*

Аннотация: *Повышение качества образования является одним из наиболее передовых направлений на уровне государственной политики. В связи с этим принимаются практические меры по повышению качества образования. В основе этих возможностей лежит светлое будущее молодых людей и их мечты.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim sifati, davlat siyosati, oliv ta'lim, ta'lim darajasi, ta'lim sifatlari, ta'lim rivoji, keng qamrovli islohotlar*

Key words: *Quality of education, public policy, higher education, level of education, quality of education, development of education, comprehensive reforms*

Ключевые слова: *Качество образования, государственная политика, высшее образование, уровень образования, качество образования, развитие образования, комплексные реформы.*

O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli dasturlarni ko'rib, ta'lim tizimi davlat miqyosida ko'tarilgan eng muhim ishlardan biri deb hisoblayman.

Sifat tushunchasi an'anaviy qarashlardan ancha keng doiraga tarqaladi va bu o'quv dasturlari mazmuni standartlarga mosligi yoki oliv ta'lim muassasasi talabalarining imtihon baholari darajasida ifodalanadi. Olyi ta'lim muassasasi quyidagi konsepsiyaniga qabil qilishi va undan foydalanishi zarur bo'ladi: sifat - bu iste'molchi (talaba, o'qituvchi, korxona, jamiyat)lar talablarini qondirish darajasi, oliv ta'lim muassasasining samarali ishslash va uyg'un kundalik faoliyatni yuritishga tayyorligi darajasidir. Yuqorida aytib o'tilgan fikr ta'lim sifati tushunchasini o'z ichiga quyidagilarni oluvchi piramida ko'rinishida o'rganish va tadqiq qilish imkonini beradi:

-ta'lim tizimi sifati;

- ta'limga boshqarish sifati; ta'limga jarayonlari sifati; -ta'lim natijalari sifati. Olyi ta'lim sifati tushunchasini ta'riflashga bo'lgan turli xil yondashuvlarning tahlilini tugata turib, diqqatni metodologik nuqtai-nazardan yana bitta prinsipial jihatdan muhim bo'lgan o'ziga xoslikka qaratishni xohlar edik. Olyi ta'lim sifati kabi mana shunday ko'p rejali va majmuaviy tushunchaning universal ta'rifini izlab topishning samarasizligi uning mazmuniy xossalari va tuzilmasini aniqlash imkoniyatining yo'qligini bildirmaydi. Olyi ta'lim sifati har doim tizimning

o‘zida yuzaga kelayotgan natijalarning davlat, jamiyat va alohida bir shaxsning talablariga mosligi (yoki mos kelmasligi) aniqlanadigan vosita bo‘lib o‘rtaga chiqadi. Bunda tizim ham, jarayon ham, natija ham o‘zining ijtimoiy vazifalariga mos kelishi va iste’molchilar turli guruhlarining konkret talablariga to‘la javob bera oladigan bo‘lishi kerak.

1."Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ta'lim oladigan maktablarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi pastligi kuzatiladi, va bu maktablarni qo'llab-quvvatlash kerak," - dedi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumann. "Barcha bolalar sifatlari ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun bunday maktablarni zarur o'quv materiallari va yuqori malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash zarur," - deb ta'kidladi u.

UNICEF, "Yuksalish" umummilliy harakati bilan birlashtirilgan "Inson kapitalini rivojlantirish: kelajak uchun ta'lim" mavzusida strategik muloqot o'tkazdi. Muloqotda maktablarning sinfonalaridagi jarayonlarga alohida e'tibor qaratildi. Maktabgacha ta'lim bosqichidanoq o'qish, yozish va hisoblash kabi ko'nikmalar bilan bir qatorda muloqot qilish va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish muhim, chunki busiz yoshlar yanada yuksak darajadagi fikrlashni talab qiladigan kelgusi ta'limga va ish joyiga ega bo'la olmaydilar. Natijada mehnat bozoridagi raqobatda engib chiqish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar.

2.Ta'lim, shu jumladan o'rta umaumta'lim maktablaridagi ta'lim darajasi va sifati mamlakat taraqqiyoti - uning iqtisodiyoti, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, mazkur yurtda yashaydigan insonlarning turmush darajasi, ijtimoiy yutuqlarini belgilaydi. Mamlakatimizda bo'lganidek eng yaxshi deb hisoblagan ta'lim darajasi aholining ijtimoiy, huquqiy hayot darajasi, kommunikatsion savodhiligi, ta'lim olishga qiziqishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Ta'lim darajasi va sifati ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratigagina emas, balki, aynan ta'lim tizimining asoslariga ham bog'liq bo'ladi. Ta'limning rivojlanish yo'li fanlar sonining va o'rganiladigan mavzularning ortishi hisobiga olinadigan bilimlar bilan kengayishi mumkin. Fanlar sonini kengaytirish, o'quvchilarga yuklamalarni ko'paytirish bilangina emas, balki o'qituvchi-pedagoglarning o'zlarini ta'lim berayotgan fanlariga har tomonlama va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda saboq berishlari uchun ularning malakalarini oshirib borish ham muhim omildir. Ta'limni rivojlantirishning – intensiv yo'li, birinchidan, ta'lim metodini o'zgartirishni, qo'shimcha bilim berish yo'llarini izlashni talab etadi. Axborotlar bilan mustaqil ishlashni bilish, topish, anglab yetish va nihoyat mavjud axborotlar asosida yangi bilimlarni uyg'unlashtirishni bilish, mana shu o'quv jarayonini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'li bo'lishi mumkin.

3.O'zbekiston Respublikasida fan, ta'lim va ishlab chiqish integratsiyasi tamoyilini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaning maqsadi oliy ta'lim sohasida ilg'or xorijiy tajriba asosida raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlashni davom ettirgan holda islohotlarni chuqurlashtirishdan iboratdir. Mazkur konsepsiyasida inklyuziv ta'lim asoslarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan:

- imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish;
- ta'limda inklyuziv jarayonlarni keng rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;
- talabalar turar joylari va

oliy o‘quv yurtlari binolarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun qo‘srimcha shart-sharoitlar yaratish; • ta’lim muassasalarini ushbu toifadagi o‘quvchilarni zarus adabiyot va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minalash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamdagil o‘quvchilarini moddiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

4.Ta’lim sifatini ta’minalash – bu kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning zaruriy darajasi uchun eng maqbul sharoitlarning yaratilishiga qaratilgan rejali, oldindan mo’ljallab qo‘yilgan va texnologik jihatdan ta’minalab qo‘yilgan boshqaruvdir. Ta’lim sifatini boshqarish - ta’lim jarayoni sharoitlari sifatini loyihalashtirish, unga erishish va qo‘llab-quvvatlash hamda uni amalga oshirishni hamda natijalarini ta’minalashdan iborat

Ta’lim sifatini nazorat qilish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish mezonlari va tabiiy fanlar bo'yicha malakalarning o'sish dinamikasini tahlil qilish orqali o‘quvchilar bilimini davlat standartlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta’lim sohasidagi kamchiliklar va hamkorlikning muvofiqlashtirilmagan jihatlari hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu muammoni hal qilish emas, balki vaziyatni to'grilash yollidir. Binobarin, ta’lim sifatini oshirish, uzlusiz ta’limni modernizatsiya qilish, uning muammolarini hal etish uchun boshqaruv tamoyillari, mezonlari va yondashuvlarini o’zgartirish, nazorat ishlarini olib borisih zarur.

.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337, A.Avliyakulov, Saydolimova Zebo Karamatovna, TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATI TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNING O'ZIGA XOS JATLARI, 2134-b

2.<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/ozbekiston-dagi-talim-sifatini-oshirish-imkoniyatlari> 3.Международный научный журнал № 6 (100), часть 1«Новости образования: исследование в XXI веке» январрь, 2023 г, Tursunov Farxod Baxodir o’g’li Nuraliyeva Feruza Abdusalim qiz, TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 343-b

4. Shoev A.X, OLIY TA'LIM MUASSALARIDA INKLIZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR 347-b

5. YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IQTISODIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB Masalalari RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 16-iyun, 2023- yil, Atabaeva Lobar Farxod qizi, UMUMIY O'RTA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH Masalalari, 71-b